

**TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.15/31.08.2022.T.73.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI

BOBOYEV DIYOR SHOMUROTOVICH

**KONTREYLER TASHISHLAR ASOSIDA TEMIR YO‘L TRANSPORT
OQIMLARINI TASHKIL QILISH**

05.08.03 – Temir yo‘l transportini ishlatish

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по техническим наукам**

**Content of the dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on technical sciences**

Boboyev Diyor Shomurotovich

Kontreyler tashishlar asosida temir yo‘l transport oqimlarini tashkil qilish 3

Бобоев Диёр Шомуротович

Организация железнодорожных транспортных потоков на основе
контрейлерных перевозок 21

Boboev Diyor Shomurotovich

Organization of railway transport flows based on piggyback transportation .. 40

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works 43

**TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.15/31.08.2022.T.73.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI

BOBOYEV DIYOR SHOMUROTOVICH

**KONTREYLER TASHISHLAR ASOSIDA TEMIR YO‘L TRANSPORT
OQIMLARINI TASHKIL QILISH**

05.08.03 – Temir yo‘l transportini ishlatish

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiyasi komissiyasida B2023.2.PhD/T3750 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat transport universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tstu.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Adilova Ziyoda Gafurdjanovna
texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Masharipov Ma'sud Nu'monjonovich
texnika fanlari doktori, dotsent

Jo'raboyev Kamoljon Abdumo'minovich
texnika fanlari nomzodi

Yetakchi tashkilot:

Turin politexnika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat transport universiteti huzuridagi PhD.15/31.08.2022.T.73.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil 15-may soat 14⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100167, Toshkent sh., Temiryo'lichilar ko'chasi, 1-uy. Tel.: (99871) 299-00-01; faks: (99871) 293-57-54; e-mail: rektorat@tstu.uz

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat transport universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (159-raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100167, Toshkent sh., Temiryo'lichilar ko'chasi, 1-uy. Tel.: (99871) 299-05-66.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil 1-may kuni tarqatildi.
(2024-yil 30-apreldagi 39-raqamli reyestr bayonnomasi).



N.M. Aripov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi, t.f.d., professor

Sh.M. Suyunbayev
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash ilmiy kotibi, t.f.d., professor

M.X. Rasulov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, t.f.n., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi kunda jahon bozorida mahsulot sifatini saqlagan holda, ishonchli va samarali tarzda dunyo bozoriga yetkazib berishni ta'minlash maqsadida, transport sohasiga yangi zamonaviy usullar va texnologiyalar joriy etishga katta e'tibor qaratilmoqda. Bu borada temir yo'l tizimida, yuklarni tashishda mahsulot turiga va uning saqlash jarayonlarini inobatga olgan holda, ikki va uch o'qli kontreylerdan foydalanish orqali iqtisodiy barqarorlikka va yuklarni tashishda yetarlicha samaradorlikka erishilmoqda. Transport xizmatlari umumiy hajmining 58,1 foizi, yuk aylanmasining 60 foizi, tashilgan yuklarning 95 foizi yer usti transportiga to'g'ri kelayotganligini hamda tashish va saqlash tarmog'ining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi taxminan 6 foizni tashkil etishini inobatga olsak¹, temir yo'l va avtomobil transportining o'zaro bog'liqligini ta'minlovchi innovatsion texnologiyalarni qo'llash zarurati tug'iladi. Shu jihatdan, avtomobil transportining mavjud kamchiliklarini temir yo'lning o'ziga xos imkoniyatlaridan samarali foydalangan holda bartaraf etishda kontreyler tashishlarni tashkil qilish va rivojlantirish orqali dunyo bozorlari bilan xalqaro transport aloqalarini yanada mustahkamlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Dunyoda transport turlari hamkorligini ta'minlovchi yangi texnologiyalarni qo'llash, kelgusida istiqbolli bo'lishi kutilayotgan yo'nalishlarni aniqlash, mahalliy va xalqaro qatnovlarda yuk tashishni rejalashtirish, transportning xizmat ko'rsatish imkoniyatlari asosida tashishlarni rivojlantirish, stansiyalarning mavjud imkoniyatlaridan samarali foydalanish, logistik xizmatlar bozoriga qulay yuk maydoni komplekslarini va yangi terminallarni loyihalash kabi vazifalarni bajarishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Shu jihatdan, avtomobil va temir yo'l transportida mavjud muammolarni yechishda eng yaxshi usul sifatida temir yo'l transportida kontreyler tashishlarning qo'llanilishi bo'yicha tadqiqotlar ustuvor hisoblanmoqda. Hozirgi kunda mamlakatimizda transport sohasini rivojlantirish, xususan multimodal tashishlarda temir yo'l transportining yuk tashish sohasidagi imkoniyatlarini yanada oshirish chora-tadbirlari qo'llab quvvatlanmoqda. Qayta ortishlarsiz, yo'qotishlarsiz, shikastlanishlarsiz, ekologik xavfsiz va o'z vaqtida "eshikdan eshikkacha" yuk yetkazib berishni tashkil qilish dolzarb vazifalardan hisoblanmoqda.

Respublikamizda so'ngi yillarda temir yo'l infratuzilmasini yaxshilash, yuklarni tashishda yangi zamonaviy texnologiyalarni qo'llash orqali, yuk oqimini ko'paytirish hamda yuklarning sifatini o'zgartirmasdan dunyo bozoriga yetkazish bo'yicha bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmonida "Barcha transport turlarini uzviy bog'lagan holda yagona transport tizimini rivojlantirish, ... transport va logistika xizmatlari bozori va infratuzilmasini rivojlantirish, ... multimodal transport-logistika markazlari tarmog'ini rivojlantirish

¹ <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/services-2>

konsepsiyasini ishlab chiqish”² hamda 2023-yil 10-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi temir yo‘l transporti sohasini tubdan isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-329-sonli Qarorida “Yuk tashish xizmatlarini amalga oshirish, yuk vagon va konteyner xo‘jaligini saqlash va rivojlantirish, multimodal “eshikdan eshikkacha” tashuvlarni yo‘lga qo‘yish, logistika markazlari va terminallarini tashkil etish”³ bo‘yicha vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalarni bajarishda, jumladan, yer usti transport turlarining o‘zaro hamkorligi orqali mahalliy va xalqaro yo‘nalishlardagi yuklarni ishlab chiqaruvchidan iste‘molchigacha yetkazib berish uchun kontreyler tashish texnologiyasini tashkil qilish dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 9-sentabrdagi “Energiya tejoyvchi texnologiyalarni joriy qilish va kichik quvvatli qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-220-sonli Farmoni, 2022-yil 6-iyuldagi “2022-2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovasion rivojlanish strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha tashkiliy chora tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-307-sonli, 2019-yil 22-avgustdagi “Iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohaning energiya samaradorligini oshirish, energiya tejoyvchi texnologiyalarni joriy etish va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirishning tezkor chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4422-sonli, 2020-yil 10-iyuldagi “Iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish va mavjud resurslarni jalb etish orqali iqtisodiyot tarmoqlarining yoqilg‘i-energetika mahsulotlariga qaramligini kamaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4779-sonli Qarorlari hamda transport sohasida yuklarni yetkazib berish texnologiyasini takomillashtirishga doir boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda keltirilgan vazifalarni bajarishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining: II. “Energetika, energotejamkorlik va muqobil energiya manbalari”, ITD-3 – “Energetika, energiya, resurstejamkorlik, transport, mashina va asbobsozlik” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Kontreyler tashishlar temir yo‘l va avtomobil transportining afzalliklarini umumlashtirgan zamonaviy texnologiya bo‘lganligi sababli qayta yuklash jarayonida ortish-tushirish vaqtlarini sezilarli darajada kamaytiradi. Buning natijasida yuklarning shikastlanishi va yetkazib berish muddati qisqaradi. Yuklarni tashish jarayonida texnologik amallarga sarflanadigan vaqtlarni minimallashtirish bo‘yicha nazariy va amaliy tadqiqotlar ko‘plab davlatlarning ilmiy markazlari, universitet va ilmiy-tadqiqot institutlarida, jumladan: University of Texas at Austin (AQSh), Beijing Jiaotong University (Xitoy), Moskva davlat avtomobil yo‘llari texnika universiteti (Rossiya), Rossiya transport universiteti (Rossiya), Butunrossiya temir yo‘l transporti ilmiy-tadqiqot

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni.

³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi temir yo‘l transporti sohasini tubdan isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-329-sonli Qarori.

instituti (Rossiya), Peterburg davlat temir yo‘l universiteti (Rossiya), Magnitogorsk davlat texnika universiteti (Rossiya), Logistika va transport akademiyasi (Qozog‘iston), Toshkent davlat transport universitetida (O‘zbekiston) olib borilmoqda.

Temir yo‘l transportida kontreyler tashishlarni tashkil etish texnologiyasini takomillashtirish va intermodal tashish usullarini rivojlantirish bo‘yicha jahondagi yirik tadqiqotchilar, jumladan R.R. Guseynov, A.G. Kirillova, D.V. Kuzmin, A.N. Raxmangulov, A.C. Charles, A.A. Gordiyenko, A.V. Shobanov, M.I. Arpabekov, M.V. Manuyeva, O.V. Snigur, Z.A. Chang, A.N. Kirillov, A.N. Sapojnikov, A.S. Shapkin, A.V. Tsiganov, Y.K. Bolandova va boshqalar tomonidan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan.

Yurtimizda bir qator olimlar tomonidan intermodal tashish usullarini joriy qilish asosida temir yo‘l transportida yuklarni yetkazib berish texnologiyasini takomillashtirish hamda yuklarni transport turlariga qayta ortish ko‘rsatkichlarini yaxshilashga qaratilgan ilmiy-tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan S.M. Jumabayev, O.S. Turdimatov, N.M. Aripov, M.X. Rasulov, Sh.M. Suyunbayev, Z.G. Adilova, D.I. Ilesaliyev, M.N. Masharipov, J.R. Qobulov, N.S. Sarvirova, K.A. Jo‘raboyev, S.B. Sattorov, Z.V. Ergasheva, J.A. Shixnazarov va boshqalar turli yillarda o‘zlarining tadqiqot ishlari orqali ijobiy natijalarga erishganlar. Ammo, temir yo‘l transportida kontreyler tashishlarni takomillashtirish va intermodal tashish usullarini ishlab chiqish bo‘yicha ko‘p yillar davomida bajarilib kelingan ilmiy va amaliy tadqiqot ishlari yetarli emasligini ta’kidlash mumkin. Shuningdek, yuklarni bir transport turidan boshqa transport turiga qayta yuklashda innovatsion texnologiyalarni rivojlantirish va amaliyotda qo‘llash bo‘yicha tadqiqotlar yetarli darajada bajarilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat transport universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga kiritilgan “O‘zbekiston temir yo‘llari” aksiyadorlik jamiyatining 2019-yil 27-dekabrda 2374-NZ-sonli buyrug‘i bilan tadiqlangan “2019-yilda texnik darajasini oshirishning yagona kompleks rejası” va 2020-yil 20-iyundagi “Yoqilg‘i-energetika mahsulotlarini tejash va energiya samaradorligini oshirish to‘g‘risida”gi 527-N-sonli buyruqlarida belgilangan vazifalar doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi kontreyler tashishlar asosida temir yo‘l transport oqimlarini tashkil qilishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

temir yo‘l va avtomobil transporti kesimida yuk oqimlari o‘shirish ko‘rsatkichlari orqali kontreyler tashishlarni tashkil qilish zaruratini asoslash;

kontreyler tashishlarni tashkil qilishda yarim tirkamalarni tashishning matematik modelini takomillashtirish;

temir yo‘l transportida kontreyler tashishlarni tashkil etishda avtotransport vositalarini platformalarga mahkamlash shartlari va talablarini tadqiq qilish;

yer usti transport turlarining o‘zaro hamkorligi asosida avtotransport vositalarini temir yo‘l platformasiga mahkamlash qurilmasini ishlab chiqish;

kontreyler tashishlarni tashkil qilishda transport oqimlarini aniqlash modeli va

poyezd tarkiblarini yig'ish yo'nalishlarini tanlash texnologiyasini ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida temir yo'l transportida kontreylerlar bilan texnologik amallar bajariladigan terminallar va ularning harakatini tashkil etish uchastkalari olingan.

Tadqiqotning predmeti sifatida yuklarni yetkazib berish tizimida kontreyler tashishlarni tashkil qilish va transport vositalaridan samarali foydalanish usullari olingan.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida Dalamber va Nyuton qonuniyatlari, matematik statistika, matematik modellashtirish, tizimli yondashuv usullari, to'plamlar, ehtimollar va tasodifiy oqimlar nazariyalaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

kontreyler tashishlarda turli platformalarga yarim tirkamalarni mahkamlashning matematik modeli harakat davomida yukning siljish holatlarini baholash asosida temir yo'l tarhi va profilini inobatga olib takomillashtirilgan;

temir yo'l platformasiga yuklanayotgan avtotransport vositalarini mahkamlovchi tortqichlarga ta'sir etuvchi kuchlarni matematik modellashtirish orqali ularning geometrik parametrlari optimal qiymatlari ilmiy asoslangan;

temir yo'l tizimida yuk aylanmasini hisobga olgan holda, maxsus yuklarni kontreylerlarda tashishda intermodal terminallarda poyezdlar tarkibini tuzish uchun transport oqimi modeli yaratilgan;

poyezd tarkibini yig'ish yo'nalishlarini tanlash texnologiyasi temir yo'l transportida avtotransport vositalarini tashishga bog'liq bo'lgan omillarni inobatga olib ularning ta'sir darajalarini belgilash asosida ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

temir yo'l platformasiga avtotransport vositalarini mahkamlash qurilmasi kontreyler tashishlarni tashkil qilishda harakat xavfsizligi talablarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan;

temir yo'l transportining raqobatbardoshligini ta'minlash va temir yo'ldan foydalanuvchilarga xizmat ko'rsatish samaradorligini kengaytirish uchun kontreyler terminallariga transport birliklarini yetkazib berish hududlarini tanlashning dasturiy majmua ko'rinishidagi instrumental vositasi yaratilgan;

yuklarni muayyan masofaga kontreylerli tashishda temir yo'l va avtomobil transportidan foydalanish bo'yicha tavsiyalar bir tonna yukni yetkazib berish xarajatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi o'tkazilgan tadqiqotda zamonaviy usullardan foydalanilganligi, matematik statistika va taqsimot qonuniyatlari asosida nazariy tadqiqotlar olib borilganligi, kontreyler tashishlar texnologiyasi uchun yaratilgan matematik model va dasturlar asosida olingan qiymatlarning amaliyotdagi ma'lumotlar bilan muvofiqligi, tadqiqot bo'yicha ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy qilinganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati kontreyler tashish texnologiyasini tashkil etish asosida yer usti transport turlari hamkorligini tashkil qilish usullarining takomillashtirilganligi, yuk aylanmasining o'sish ko'rsatkichlarini har tomonlama tahlil qilish yordamida

transport oqimlarini bashorat qilish ishonchligining ortishi, yukga ta'sir qiluvchi kuchlarni asoslash orqali yuklarni temir yo'l transportida tashishda mahkamlash shartlari va usullarining ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati yer usti transport turlari yordamida yuklarni yetkazib berish jarayonining ishonchlik va raqobatbardoshligini oshirish, temir yo'l transportida kontreyler tashishlar orqali yuklarni ishlab chiqaruvchidan iste'molchigacha yetkazib berish imkoniyatining yaratilganligi, temir yo'l va avtomobil transportlarida yuklarni qayta ortish vaqtini sezilarli darajada kamaytirishga erishilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Kontreyler tashishlar asosida temir yo'l transport oqimlarini tashkil qilish bo'yicha olingan ilmiy yechimlar asosida:

temir yo'l platformasiga yuklanayotgan avtotransport vositalarini mahkamlovchi tortqichlarga ta'sir etuvchi kuchlarni aniqlash metodikasi "O'zbekiston temir yo'llari" AJning "Toshkent Mintaqaviy temir yo'l uzeli" unitar korxonasi va "O'ztemiryo'lkonteyner" aksiyadorlik jamiyatiga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligining 2023-yil 29-maydagi 2/3489-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, yuklarning turiga ko'ra mahkamlovchi tortqichlarning soni va geometrik o'lchamlarini aniqlash imkoniyati yaratilgan;

temir yo'l tizimida yuk aylanmasini hisobga olgan holda, maxsus yuklarni kontreylerlarda tashishda intermodal terminallarda poyezdlar tarkibini tuzish bo'yicha ishlab chiqilgan texnologiya "O'zbekiston temir yo'llari" AJning "Toshkent Mintaqaviy temir yo'l uzeli" unitar korxonasi va "O'ztemiryo'lkonteyner" aksiyadorlik jamiyatiga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligining 2023-yil 29-maydagi 2/3489-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, qayta ortish terminallarida bajariladigan texnologik amallarga sarflanadigan vaqtlarni kamaytirishga erishilgan hamda kontreyler poyezdlar bilan tashishni tashkil qilish orqali yuklarni yetkazib berishdagi qayta ishlash sarflari qisqartirilgan, temir yo'l platformasida yuklangan avtotransport vositalarini harakat xavfsizligi talablari asosida tashish va zararli elementlarning tashqi muhitga chiqishini 90 % ga kamaytirish imkoni yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 10 ta ilmiy-amaliy anjumanlar, shu jumladan 5 ta xalqaro (shundan 3 ta Scopus bazasiga kiruvchi to'plamda) va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokama qilingan va aprobatsiyadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 15 ta ilmiy ish, jumladan Oliy attestatsiyasi komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta, jumladan 2 ta xorijiy va 3 ta respublika ilmiy jurnallarda maqolalar chop etilgan hamda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligidan 1 ta EHM uchun dasturga guvohnoma olingan, yangi qurilma uchun 1 ta foydali modelga patent olish uchun FAP-2022-0402-sonli talabnoma taqdim etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya matnining asosiy hajmi 114 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati, maqsad va vazifalari asosan, uning obyekti va predmeti tavsiflangan, ularning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilinib, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan. Shu bilan birga tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, chop etilgan ilmiy ishlar, dissertatsiya tarkibi va hajmi to‘g‘risidagi ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Yer usti transport turlari orqali yuklarni tashishni tashkil etishning tahlili”** deb nomlangan birinchi bobida yer usti transport turlarida yuk oqimlari hajmi va tuzilishining holati, o‘rganilgan temir yo‘l va avtomobil transportining o‘zaro hamkorligini tashkil etish bo‘yicha xorijiy tajribalar, harakat xavfsizligini ta‘minlash uchun texnik vositalarning qiyosiy tahlili bo‘yicha bajarilgan mahalliy va xorijiy ilmiy ishlar tadqiq etilgan.

“O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ da so‘nggi yillar davomidagi statistik ma‘lumotlar tahlili amalga oshirilgan. Natijada transport turlari orasida avtomobil transportidagi yuk oqimlarining ulushi sezilarli darajada yuqori ekanligi aniqlangan. Bu esa kelajakda ushbu transport turidagi yuk oqimlarining ko‘payishi natijasida tirbandliklarning ortishi, yo‘l qoplamalarining eskirishi, xavfsizlik talablari bajarilishining kamayishi, transportga qo‘yiladigan cheklovlarning joriy qilinishi, yuklarni yo‘l davomidagi yo‘qotishlarining ortishi kabi ko‘plab muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Ushbu oqimlarni xavfsiz va ishonchli tashishda temir yo‘l transportining imkoniyati yetarli ekanligini inobatga olib, temir yo‘l va avtomobil transportida foydalaniladigan texnologiyalarni o‘rganib chiqish hamda yer usti transport turlarining o‘zaro hamkorligi orqali tashishlarni tashkil etish muhim vazifadir. Transport oqimlarining ortishi nuqtai nazaridan tashishga bo‘lgan talablarni qondirish uchun temir yo‘l transportida kontreyler tashishlardan foydalanish sohada kutilayotgan muammolarni kamaytirish imkoniyatini beradi.


Zamonaviy tashishlarni qo‘llash orqali temir yo‘llarda ortish-tushirish ishlarini kamaytirish, turib qolish vaqti, manyovr ishlari, xavfsizlik va yo‘llarni band qilish kabi muammolar bartaraf etiladi. Tahlillar orqali kontreyler tashishlarda ortish-tushirish texnologiyasi, transport oqimlarini tadqiq qilish, kontreyler tashishlarga ta‘sir qiluvchi omillar, xavfsizlik hamda yuklarni mahkamlash jarayonlarini matematik modellashtirish masalalari belgilab olingan.

Dissertatsiyaning **“Kontreyler tashishlarni tashkil etish, tashish vositalariga qo‘yiladigan mahkamlash shartlari va talablari”** deb nomlangan ikkinchi bobi kontreyler tashish jarayonlarini matematik modellashtirishning tavsifi, temir yo‘l platformalarida avtotransport vositalarini tashishda ta‘sir qiluvchi kuchlar parametrlarini tadqiq etish, turli sharoitlarni inobatga olib kontreyler tashishlarda mahkamlash shartlarining matematik modelini takomillashtirish va temir yo‘l platformasiga avtotransport vositalarini mahkamlash qurilmasini ishlab chiqishga bag‘ishlangan.

Bo‘ylama, ko‘ndalang, vertikal inersiya va ishqalanish kuchlari og‘irlikka bog‘liq bo‘lib, kuchlarning qo‘yilish nuqtasi yukning og‘irlik markazi hisoblanadi.

Aerodinamik kuch esa uning ta'sir qiladigan yuzasiga bog'liq bo'lib, shamol kuchining ta'siriga uchragan maydonchanning og'irlik markazi hisoblanadi. Demak, avtotransport vositalarining bo'yama siljishi va ko'ndalang tebranishi uning konstruksiyasi, yuzasi, harakatlanish tezligi, egrilik radiusi va ishqalanish koeffitsiyenti qiymatiga bog'liq bo'ladi.

Mahkamlash vositasining siljishga mustahkamligi aniqlangan siljitish kuchlaridan kam bo'lmasligi kerak. Mahkamlash vositalarining har biriga tushadigan alohida kuchlarning qiymatlarini hisoblash esa mahkamlash nuqtalari sonini to'g'ri belgilash va harakat vaqtidagi mustahkamlikning ishonchlilik darajasini aniqlashni ta'minlaydi. Yuklarga doimiy ta'sir qiluvchi kuchlardan tashqari egrilik va burilishlarda ta'sir qiluvchi markazdan qochma kuch ham mavjud bo'lib, mahkamlash vositalarining hisobida ushbu kuch ham inobatga olingan (1-rasm).



1-rasm. Egrilik hamda qiyalikda harakatlanayotgan platforma va yarim tirkamaga ta'sir qiladigan kuchlar sxemasi

bunda : H, L, B – mos ravishda, yarim tirkamaning balandligi, uzunligi va eni, m; \overline{F}_n^I – normal inersiya kuchi, N; \overline{F}^I – inersiya kuchlari, N; \overline{Q}_{yuk} – yarim tirkamaning yuklangan yoki bo'sh holatdagi og'irligi, N; \overline{F}^K – Koriolis inersiya kuchi, N; \overline{F}^A – aerodinamik qarshilik kuchi, N; \overline{F}^R – tortqichning reaktivlik kuchi, N; \overline{F}_{ni}^R – g'ildirakni mahkamlash vositasi komplektidagi reaktivlik kuchlari, N; \overline{N} – reaksiya kuchi, N; \overline{F}_{sh} – yarim tirkama shinasining platforma ustida harakatlanishiga to'sqinlik qiladigan kuchlar, N; ξ – platformaning bo'yama x o'qda siljiganida yuklangan vagon ramasi egilishi hisobga olinadigan burchak, °; ψ_0 – tarkibning qiyalikda harakatlanish burchagi, °; θ – tashqi relsning ichkisiga nisbatan balandligini tavsiflovchi burchak, °; ζ – platformaning ko'ndalang y o'qda siljiganida yuklangan vagon ramasi egilishi hisobga olinadigan burchak, °; Δh – tashqi va ichki rels balandliklari farqi, m; R – egrilik trayektoriyasi radiusi, m; l_a, l_b, l_s, l_d – mahkamlash vositasi (tortqich) ning uzunligi, m; h_a, h_b, h_s, h_d – tortqichning ko'ndalang o'qdagi proyeksiyasi balandligi, m; M – yukning og'irlik markazi nuqtasi; P_a, P_b, P_s, P_d – platformadagi tortqichni o'rnatish nuqtalari;

Platformaga joylashtirilgan yukdagi “siljish” va “ushlab turuvchi” kuchlarning teng ta’sir etuvchilari orqali mahkamlash vositalari qabul qiladigan umumiy kuchlar aniqlangan. Avtotransport vositalarining bo‘ylama siljishi va ko‘ndalang tebranishi uning konstruksiyasi, yuzasi, harakatlanish tezligi, egrilik radiusi va ishqalanish koeffitsiyenti qiymatiga bog‘liqligini inobatga olib, mahkamlash vositalarining har biriga tushadigan alohida kuchlarning qiymatlari hisoblangan.

Guk qonuniga asosan mahkamlash vositasining zo‘riqish kuchi quyidagicha aniqlangan:

$$F_i^R = k \cdot \Delta l_i = \frac{E \cdot S}{l_0} \cdot \Delta l_i = \frac{E \cdot \pi \cdot R^2}{l_0} \cdot \Delta l_i = \frac{E \cdot \pi \cdot d^2}{4} \cdot \Delta l_i = \frac{\pi}{4} \cdot E \cdot d_i^2 \cdot \frac{n_i}{l_i} \cdot \Delta l_i, \quad (7)$$

bunda: k – tortqichning deformatsiyasini xarakterlovchi bikrlilik; E – Yung moduli (po‘lat uchun 190 – 210 Gpa); F_i^R – zo‘riqish kuchi, N; n_i va d_i – tortqichdagi simlarning soni va diametri, m; $l_i(l_0)$ – tortqichning boshlang‘ich uzunligi, m; Δl – harakat davomida tortqichning cho‘zilishi, m.

Mahkamlash vositasining ekvivalent qattiqligi quyidagicha ifodalanadi:

$$c_{ekv}^F = \frac{\pi}{4} \cdot E \cdot d_i^2 \cdot \sum_{i=1}^{n_p} \frac{n_i}{l_i} \cdot \left(\frac{a_i}{l_i} \cdot \cos \lambda + \frac{b_i}{l_i} \cdot \sin \lambda + \frac{h_i}{l_i} \right) \cdot \cos \varepsilon \times \sqrt{\left(\frac{a_i}{l_i} + \mu_{sh} \cdot \frac{h_i}{l_i} \cdot \cos \lambda \right)^2 + \left(\frac{b_i}{l_i} + \mu_{sh} \cdot \frac{h_i}{l_i} \cdot \sin \lambda \right)^2 + \frac{h_i^2}{l_i^2}}, \quad (8)$$

Yarim tirkamani mahkamlash vositasining mustahkamligini ta’minlash uchun qo‘yilgan shart bajarilishi talab etiladi:


$$F_i^{Rel} = \Delta s \cdot \frac{\pi}{4} \cdot E \cdot d_i^2 \cdot \sum_{i=1}^{n_p} \frac{n_i}{l_i} \cdot \left(\frac{a_i}{l_i} \cdot \cos \lambda^{(i)} + \frac{b_i}{l_i} \cdot \sin \lambda^{(i)} + \frac{h_i}{l_i} \right) \cdot \cos \varepsilon^{(i)} \leq [F_i^R], \quad (9)$$

Avtotransport vositalarini harakat tarkiblariga joylashtirish va mahkamlash sxemalari bo‘yicha ularning siljishi va tebranishi natijasida mahkamlash elementlariga tushadigan zo‘riqishlar aniqlangan. Olingan ifodalar kontreyler tashishlarda avtotransport vositasini platformaga mahkamlash texnologiyasini yanada aniqroq, xavfsiz va ishonchli amalga oshirish imkonini beradi.


Kontreyler tashishlarda platformada tashilayotgan yukning barqaror shamol esish zonalarida va temir yo‘l izi egriligi natijasida yuzaga keladigan markazdan qochma kuchlar natijasida turg‘unligini ta’minlash dolzarb hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan yuqoridagi muammolarning batafsil yechimlari uchun matematik modellarini takomillashtirishga asoslangan algoritm qo‘llanilgan. Ushbu algoritm yordamida mahkamlash vositasining mustahkamligi chegarasini inobatga olib, yukning siljish masofasi, tortqichlarning umumiy soni, simlari soni va diametri hamda qattiqlik darajasiga asosan materialini tanlash imkoniyati yaratilgan.

Platformadagi yukni mahkamlashda g‘ildirak tirkaklari kompleksini ishlatish texnik jihatdan qulay va ishonchli sanaladi. Temir yo‘l platformalariga yuklangan avtotransportlarni mahkamlashda turli xil yuklash sxemalari va ularni platformada mahkamlash usullari qo‘llaniladi, ular transport vositasining turiga, uning o‘lchamlari va massasiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liqdir. Ishlab chiqilgan temir yo‘l

platformasiga avtotransport vositalarini mahkamlash qurilmasi uchun taklif etilgan ko‘rinishlari 3 – va 4 – rasmlarda keltirilgan.



3-rasm. Temir yo‘l platformasiga avtotransport vositalarini mahkamlash qurilmasi ko‘ndalang tirgagining ko‘rinishi



4-rasm. Temir yo‘l platformasiga avtotransport vositalarini mahkamlash qurilmasi yon tirgagining ko‘rinishi

3-va 4-rasmlardagi strukturaviy elementlarning raqamli belgilari ro‘yxati: 1 – ko‘ndalang tirgak; 2 – bo‘ylama tirgak; 3 – uchli tishlar; 4 – standart platforma polining yuqoridan ko‘rinishi; 5 – pichoqlar; 6 – korpus; 7 – narvon tipidagi chuqurlar; 8 – kichik qabul qiluvchi yuza; 9 – ko‘ndalang tirgakning yon tayanchi; 10 – o‘zak; 11 – standart platforma polining yon tomondan ko‘rinishi; 12 – qabul qiluvchi yuza; 13 – qurilma massasini kamaytirish uchun texnologik kesmalar; 14 – texnologik kesmalar orasidagi plitalar.

Qurilma parametrlari harakat davomida yukka, g‘ildiraklarga, mahkamlash vositasiga koordinata o‘qlari bo‘yicha ta’sir qiluvchi kuchlarni inobatga olib ishlab chiqilgan. Natijada, ushbu qurilmada qo‘llaniladigan metall turi, qalinligi va uning o‘lchamlarini har taraflama hisoblash orqali temir yo‘l platformasiga joylashtirilgan avtotransport vositasini mahkamlashda harakat xavfsizligini yuqori darajada ta’minlash imkoniyati yaratilgan.

Dissertatsiyaning “**Yer usti transport turlarining o‘zaro hamkorligida kontreyler tashishlarni rejalashtirish**” deb nomlangan uchinchi bobida kontreyler tashish texnologiyasiga ta’sir etuvchi omillar asoslangan, to‘plamlar nazariyasi asosida kontreyler terminalarida transport oqimlarini aniqlash modeli yaratilgan, kontreyler terminalida harakat tarkibi uchun avtotransport vositalarini yig‘ishda yo‘nalishlarni tanlash texnologiyasi ishlab chiqilgan.

Spirmen korrelyatsiya koeffitsientlarining qiymatlaridan kelib chiqadiki, eng ko‘p bog‘liq bo‘lgan pb o‘zgaruvchisi (kontreyler tashishlarning yuk aylanmasi, million tonna) vt (YaIM transport xizmatlari, milliard AQSh dollari) o‘zgaruvchi (regressor)ga bog‘liq va ahamiyatlilik koeffitsienti $p=0,049 < 0,05$ (ishonchlilik oralig‘i 95% shartiga muvofiq kelish talab etiladi). Bundan tashqari, bog‘liqlik darajasiga ko‘ra, pb ning qiymati at (avtomobil transporti yuk aylanmasi, million

tonna), *rt* (temir yo‘l transporti yuk aylanmasi, million tonna) o‘zgaruvchilariga bog‘liq, ular uchun *p* qiymati $p=0,104>0,1$ (ishonchlilik oralig‘i 90% shartiga muvofiq kelish talab etiladi). Shuningdek, *pb* juda kam ta’sir bilan *ad* (qattiq qoplamali avtomobil yo‘llari, km) va *vu* (transport xizmatlari bo‘yicha tashqi savdo aylanmasi, milliard AQSh dollari) bilan juda kam bog‘liqdir, ahamiyatlilik darajasi $p=0,133>0,1$. Qolgan o‘zgaruvchilar $pb<0,5$ bo‘lganda korrelyatsiya koeffitsientlariga ega, shuning uchun ular o‘zgaruvchiga bog‘liq emas.

Mustaqil o‘zgaruvchilarning o‘zaro bog‘liqlik koeffitsientlarini hisobga olgan holda, ba’zi o‘zgaruvchilarning yuqori korrelyatsiya darajasi va hatto to‘liq kollinearligini ta’kidlash kerak (5-rasm). Bu shuni anglatadiki, bunday o‘zgaruvchilarni bir vaqtning o‘zida mustaqil regressorlar deb hisoblash mumkin emas. Korrelyatsiyaning o‘zgaruvchilari o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri va teskari aloqa mavjudligi uchun o‘zgaruvchilar kesimida taqsimot zichligi grafigi ko‘rib chiqilgan.

	pb	vu	vo	ad	rd	vt	at	rt
pb	—							
vu	-0.509	—						
vo	0.295	-0.530	—					
ad	-0.509	1.000	-0.530	—				
rd	0.295	-0.530	1.000	-0.530	—			
vt	0.648	-0.902	0.702	-0.902	0.702	—		
at	0.552	-0.914	0.726	-0.914	0.726	0.988	—	
rt	0.552	-0.914	0.726	-0.914	0.726	0.988	1.000	—

5-rasm. Jamovi statistik to‘plamida Spirmen korrelyatsiya matritsasi

5-rasmda ko‘rsatilgan matritsadagi rangli joylarining kattaligi bir juft o‘zgaruvchilar o‘rtasidagi korrelyatsiya aloqasini to‘g‘ri aniqlashga imkon beradi (kichik maydon yuqori korrelyatsiyani bildiradi). Korrelyatsiya koeffitsientlarining hisoblangan qiymatlari, taqsimot zichligi grafiglari o‘zgaruvchi va ta’sir qiluvchi omillar o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rnatishga imkon beradi. Nomustaqil o‘zgaruvchisi *pb* uchun regressiya modeli eng kichik kvadratlar (EKK) usuli asosida qurilgan.

Hisoblangan qiymatlar va mezonlar asosida regressiya tenglamasi qurilgan modelni yetarlicha tavsiflaydi:

$$pb = -1,03 - 0,000832 \cdot at + 0,00457 \cdot vt + 0,0303 \cdot rt \quad (10)$$

(10) tenglama yordamida keyingi yillar uchun kontreyler tashishlarning yuk aylanmasi bashoratini amalga oshirish imoniyati yaratilgan.

Kontreyler tashishlarning yuk aylanmasi miqdoriga ta’sir qiluvchi tanlangan omillarning korrelyatsiya tahlili, shuningdek, realistik ko‘p regressiya tenglamasini (10) qurish quyidagi xulosalarni shakllantirishga imkon beradi: kontreyler tashishlarning yuk aylanmasi transport xizmatlari uchun YaIM miqdoriga bevosita bog‘liq; avtomobil transporti yuk aylanmasiga teskari bog‘liq, chunki avtomobil transporti kontreyler tashishlarga eng kuchli alternativ hisoblanadi (shuni ta’kidlash kerakki, korrelyatsiya tahlili to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liqlikni ko‘rsatadi, ammo ko‘p regressiya tenglamasi (10) teskari munosabatni ko‘rsatadi); temir yo‘l transporti yuk

aylanmasiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq, chunki kontreyler tashishlar temir yo'l transportining bir qismidir; asfaltlangan avtomobil yo'llarining uzunligiga (zaif darajada) teskari bog'liq, bu asosli, chunki bu yo'llar raqobatdosh avtomobil transporti uchun ishlatiladi; transport xizmatlari tashqi savdo aylanmasidagi qiymatga (zaif darajada) teskari bog'liq va ehtimol korrelyatsiyaning zaifligi va kuzatuvlarning kamligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot doirasida O'zbekiston Respublikasidagi kontreyler tashishlarning yuk aylanmasiga ta'sir etuvchi omillarini korrelyatsion tahlili amalga oshirilgan. Kontreyler tashishlarning yuk aylanishiga ta'sir qiluvchi asosiy omillari va ularning ta'sir darajasi statistik usullar bilan aniqlangan. O'n yillik ma'lumotlarga asoslanib, korrelyatsiya matritsasi, shuningdek yuk aylanmasining regressiya modeli qurilgan. Olingan natijalar 95% ishonch oralig'i bilan 2-4 yil davomida kontreyler yuk aylanmasi uchun bashoratlar tuzishga imkon beradi. Shunday qilib, O'zbekiston Respublikasida kontreyler tashishlarning istiqboldagi rivojlanishi bo'yicha bashoratlar tuzishda tanlagan omillar ta'sirining darajasi va yo'nalishini hisobga olish kerak. Keltirilgan matematik usullarni o'rinli qo'llash ishonchlilikni ta'minlash bilan bir qatorda texnologiya samaradorligini ham orttiradi.

Kontreyler poyezdi tarkibini yig'ish uchun avtotransport vositalari bir-biriga bog'liq yoki bog'liq bo'lmagan holda turli yo'nalishlarda va miqdorda bo'lishi mumkinligi inobatga olingan. Buning natijasida kontreyler poyezdini tuzishda ortiqcha turish vaqtlarining oldi olinadi.

